ZAMONAVIY MUSIQA TA'LIMIDA DUTOR IJROCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mansurova Maftuna Alijon qizi
Namangan viloyati Chust tumani
15-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi
dutor sinfi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21948647

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek milliy musiqa madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan dutor cholg'usini zamonaviy musiqa ta'limi tizimida o'qitishning pedagogik, metodik va ijrochilik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda, ayniqsa, Bolalar musiqa va san'at maktablarida dutor ijrochiligini boshlang'ich bosqichdan samarali shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Dutor ijrochiligini o'rgatishda an'anaviy "ustoz-shogird" tajribasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, individual ta'lim strategiyalari, audio-video vositalari va raqamli resurslar bilan uyg'unlashtirish zarurligi asoslanadi. Tadqiqot davomida BMSMlarda uchraydigan asosiy muammolar, jumladan, o'quvchilarning musiqiy tayyorgarlik darajasi o'rtasidagi tafovut, dutorni to'g'ri ushlash va ijro holatini shakllantirishdagi qiyinchiliklar, o'ng va chap qo'l harakatlarining muvofiqlashmaganligi, ritmik aniqlikning yetarli darajada shakllanmasligi, repertuarning o'quvchining individual imkoniyatlariga har doim ham mos kelmasligi, mustaqil mashg'ulot ko'nikmalarining sustligi hamda sahna tajribasining yetishmasligi tahlil qilinadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun bosqichma-bosqich ta'lim, differensial va individual yondashuv, texnik mashqlar tizimini takomillashtirish, milliy va zamonaviy repertuarni uyg'unlashtirish, muntazam nazorat va refleksiya, shuningdek, ansambl va sahna amaliyotini kuchaytirish bo'yicha metodik takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: dutor, dutor ijrochiligi, BMSM, musiqa ta'limi, ijrochilik texnikasi, ustoz-shogird, repertuar, milliy musiqa, pedagogik metodika, individual yondashuv, innovatsion ta'lim, sahna madaniyati, ansambl, musiqiy meros.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА НА ДУТАРЕ В СОВРЕМЕННОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются педагогические, методические и исполнительские основы обучения игре на дутаре в современной системе музыкального образования. Особое внимание уделяется начальному этапу формирования исполнительских навыков игры на дутаре в Детских школах музыки и искусства (ДШМИ). Обосновывается необходимость сочетания традиционной системы «устоз-шогирд» с современными педагогическими технологиями, индивидуальными образовательными стратегиями, аудио- и видеосредствами, а также цифровыми образовательными ресурсами. В исследовании рассматриваются основные проблемы, возникающие в

процессе обучения игре на дутаре в ДШМИ, включая различия в уровне начальной музыкальной подготовки учащихся, сложности в формировании правильной посадки и положения инструмента, несогласованность движений правой и левой рук, недостаточную ритмическую точность, проблемы контроля качества звука, несоответствие репертуара индивидуальным возможностям учащихся, недостаточно сформированные навыки самостоятельных занятий и ограниченный сценический опыт. Для решения выявленных проблем предлагаются педагогические подходы, основанные на поэтапном обучении, индивидуализации и дифференциации образовательного процесса, систематизации технических упражнений, рациональном подборе репертуара, развитии навыков самостоятельной работы, использовании аудиовизуальных технологий, а также расширении ансамблевой и сценической практики. Результаты исследования показывают, что ДШМИ является фундаментальным этапом формирования исполнительской культуры учащегося, а эффективность обучения игре на дутаре определяется интеграцией национальных исполнительских традиций, современных педагогических методов и цифровых образовательных технологий.

Ключевые слова: дутар, исполнительство на дутаре, детская школа музыки и искусства, музыкальное образование, исполнительская техника, устоз-шогирд, репертуар, национальная музыка, педагогическая методика, индивидуальный подход, инновационное образование, сценическая культура, ансамблевое исполнительство, музыкальное наследие.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF DUTAR PERFORMANCE IN MODERN MUSIC EDUCATION

ABSTRACT

This article analyzes the pedagogical, methodological, and performance-based foundations of teaching dutar performance in the modern music education system. Particular attention is paid to the initial stage of developing dutar performance skills in Children's Music and Arts Schools (CMAS). The study substantiates the necessity of combining the traditional "ustoz-shogird" mentor-apprentice system with modern pedagogical technologies, individualized educational strategies, audio and video tools, and digital educational resources. The research examines the main problems encountered in teaching dutar performance in CMAS, including differences in students' initial musical preparation, difficulties in developing correct posture and instrument positioning, insufficient coordination between the right and left hands, inadequate rhythmic accuracy, problems with sound quality control, inconsistency between the repertoire and students' individual abilities, insufficiently developed independent practice skills, and limited stage experience. To address these challenges, the article proposes pedagogical approaches based on step-by-step instruction, individualization and differentiation of the educational process, systematic technical exercises, appropriate repertoire selection, development of independent practice skills, effective use of audiovisual technologies, and expansion of ensemble and stage performance practice. The findings demonstrate that CMAS represents a fundamental stage in the formation of students' performance culture, while the effectiveness of dutar education

depends on the integration of national performance traditions, modern pedagogical methods, and digital educational technologies.

Keywords: dutar, dutar performance, Children's Music and Arts School, music education, performance technique, ustoz-shogird, mentor-apprentice tradition, repertoire, national music, pedagogical methodology, individual approach, innovative education, stage culture, ensemble performance, musical heritage.

KIRISH

O‘zbek xalq musiqa madaniyati ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan boy ijrochilik an’analariga ega bo‘lib, ushbu madaniy meros tarkibida milliy cholg‘ular alohida o‘rin egallaydi. Ana shunday cholg‘ulardan biri bo‘lgan dutor sozi o‘zining mayin va o‘ziga xos tembri, ohangdorligi, ijrochilik imkoniyatlarining kengligi bilan ajralib turadi. Dutor ijrochiligi nafaqat xalq musiqa ijodiyotida, balki professional musiqiy ta’lim, ansambl va orkestr ijrochiligi tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda musiqa ta’limining asosiy vazifalaridan biri milliy musiqa merosini chuqur o‘zlashtirgan, ijrochilik texnikasini puxta egallagan, mustaqil musiqiy tafakkurga ega va zamonaviy sahna talablariga javob bera oladigan yosh mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, dutor ijrochiligini o‘qitish metodikasini takomillashtirish ushbu jarayonning dastlabki bosqichi hisoblangan Bolalar musiqa va san’at maktablarida ta’lim mazmunini ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish dolzarb pedagogik masalalardan biridir. O‘quvchi aynan shu bosqichda cholg‘uni to‘g‘ri ushlash, ijro holatini shakllantirish, o‘ng va chap qo‘l harakatlarini muvofiqlashtirish, tovush hosil qilish, oddiy shtrixlardan foydalanish, ritmni his qilish va nota matnini o‘qish kabi dastlabki ko‘nikmalarni egallaydi. Mazkur ko‘nikmalarning noto‘g‘ri shakllanishi keyingi ta’lim bosqichlarida texnik va badiiy ijrochilik imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelishiga olib keladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, dutor o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning musiqiy qobiliyati, eshitish darajasi, ritmni his qilish qobiliyati, barmoqlarining harakatchanligi va o‘zlashtirish tezligi bir xil emas. Ayrim o‘quvchilar cholg‘uni tez o‘zlashtirsa, boshqalarida oddiy ijro harakatlarini shakllantirish uchun ko‘proq vaqt talab etiladi. Bunday sharoitda barcha o‘quvchilarga bir xil repertuar, bir xil mashq va bir xil sur’atda talab qo‘yish kutilgan pedagogik natijani bermasligi mumkin. Shuning uchun individual va differensial yondashuv dutor ta’limining muhim metodik tamoyillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Musiqa maktablarda kuzatiladigan yana bir muhim muammo — o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulot olib borish ko‘nikmasining yetarli darajada shakllanmaganligidir. Dars davomida o‘qituvchi nazorati ostida to‘g‘ri ijro etilgan mashq uy sharoitida mustaqil takrorlanganda xatolar bilan bajarilishi mumkin. Buning sababi ko‘pincha o‘quvchining mashqdan ko‘zlangan maqsadni anglamasligi, mashq qilish ketma-ketligini bilmasligi yoki o‘z ijrosini mustaqil nazorat qila olmasligi bilan bog‘liq. Shu sababli o‘qituvchi o‘quvchiga nafaqat “nima ijro etish”, balki “qanday mashq qilish” metodikasini ham o‘rgatishi zarur. Dutor ijrochiligini o‘rgatishda milliy ijrochilik an’analarini saqlash va ularni zamonaviy pedagogik sharoitlarga moslashtirish ham muhimdir. Tarixan dutor ijrochiligi “ustoz-shogird” an’anasi asosida shakllangan bo‘lib, unda ijro texnikasi bilan bir qatorda musiqiy tafakkur, ijro madaniyati, badiiy did va kasbiy mas’uliyat ham shakllantirilgan. Biroq

zamonaviy ta’lim jarayoni ushbu an’anani audio-video yozuvlar, raqamli ta’lim resurslari, individual mashq dasturlari va refleksiv pedagogik usullar bilan boyitishni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy musiqa ta’limi tizimida, xususan, bolalar musiqa va san’at maktablarida dutor ijrochiligini o‘qitishning pedagogik va metodik xususiyatlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali yechimlarni ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari dutor ijrochiligining musiqa ta’limdagi o‘rnini aniqlash, boshlang‘ich bosqichda uchraydigan ijrochilik muammolarini tahlil qilish, texnik ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali usullarini belgilash, repertuar tanlash mezonlarini takomillashtirish, individual pedagogik yondashuv imkoniyatlarini ochib berish hamda an’anaviy va innovatsion metodlarni uyg‘unlashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini dutor ijrochiligi, musiqa pedagogikasi va xalq cholg‘ularini o‘qitish metodikasiga oid ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish, taqqoslash, tizimlashtirish, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish metodlari tashkil etadi. Tadqiqotda U. Yunusovning “Xalq cholg‘ularida ijrochilik. Dutor”, R. Xodjayevaning “Xalq cholg‘ularida ijrochilik. Dutor”, I. Toshpo‘latovaning “An’anaviy cholg‘u ijrochiligi (dutor)”, J. Rasultoyevning “O‘zbek dutor ijrochiligi”, O. Qosimovning “Dutor navolari” kabi manbalardan foydalanilgan.
Tahlil metodidan dutor ijrochiligini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan texnik va metodik muammolarni aniqlashda foydalanildi. Taqqoslash metodi yordamida boshlang‘ich, o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlarida dutor ijrochiligiga qo‘yiladigan pedagogik talablarning o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Tizimlashtirish asosida texnik tayyorgarlik, musiqiy-nazariy bilim, repertuar, badiiy talqin, sahna madaniyati va mustaqil ishlash ko‘nikmalari yagona pedagogik tizim sifatida qaraldi.

Pedagogik kuzatuv va umumlashtirish metodlari orqali o‘quvchilarda uchraydigan ijrochilik qiyinchiliklari, ularning kelib chiqish omillari va mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqotda dutor ijrochiligini o‘rgatishning uzluksizligi asosiy tamoyil sifatida belgilandi. Bunda ilk bosqichlarda shakllangan boshlang‘ich texnik ko‘nikmalar keyingi o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlarida murakkab ijrochilik hamda badiiy talqin darajasiga olib chiqilishi nazarda tutiladi. Ko‘pgina mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ijro etish texnikasini izlash jarayonida ustuvorlik musiqa va eshitish tasviriga berilishi kerak, bu o‘zini eng samarali deb biladi.[1]

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari dutor ijrochiligini samarali o‘rgatish jarayoni izchil, bosqichma-bosqich, individual va kompleks tarzda tashkil etilganda yuqori natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu borada, Bolalar musiqa va san’at maktablari dutor ijrochiligini o‘rgatishning dastlabki va asosiy bosqichi sifatida alohida pedagogik ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchining keyingi kasbiy rivojlanishi, avvalo, aynan shu bosqichda

[1] Isayeva N. Cholg‘uijrocholigi Dutor T.2024 18-b

shakllanadigan boshlang‘ich ijrochilik ko‘nikmalarining to‘g‘ri egallanishiga bog‘liq. Dutorni ushlash, to‘g‘ri o‘tirish, qo‘l va barmoqlarni to‘g‘ri joylashtirish, tovush chiqarish, ritmga rioya qilish, nota bilan ishlash va musiqani eshitib anglash kabi ko‘nikmalar dastlabki bosqichda to‘g‘ri shakllantirilmasa, keyinchalik ularni qayta o‘rgatish qiyinlashadi**.**

Dutor ijrochilik ta’limini tashkil etishda o‘quvchilarning boshlang‘ich musiqiy tayyorgarligi bir xil emasligi muhim pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ayrim o‘quvchilar musiqa tinglash, kuyga mos harakat qilish, ritmni his etish va tovush balandligini farqlash bo‘yicha nisbatan yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lsa, boshqalarida ushbu ko‘nikmalarni izchil shakllantirish talab etiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning barmoq harakatchanligi, musiqiy xotirasi, eshitish qobiliyati va yangi materialni o‘zlashtirish tezligi ham bir-biridan farq qiladi. Bunday sharoitda barcha o‘quvchilarga bir xil mashq va repertuarni bir xil sur’atda o‘zlashtirish talabini qo‘yish ta’lim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli dutor o‘qitish jarayonida individual va differensial pedagogik yondashuvni qo‘llash, o‘quvchining mavjud imkoniyatlarini dastlabki kuzatuv asosida aniqlash va uning rivojlanish dinamikasiga mos metodik topshiriqlarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

Dutor ijrochiligini o‘zlashtirishdagi muhim qiyinchiliklardan biri cholg‘uni to‘g‘ri ushlash va ijro holatini shakllantirish bilan bog‘liq. Boshlang‘ich ta’lim davrida noto‘g‘ri o‘tirish, cholg‘uning tanaga nisbatan noqulay joylashtirilishi, o‘ng yoki chap qo‘lning ortiqcha zo‘riqishi ijro harakatlarining tabiiyligini buzadi. Bunday kamchiliklar vaqt o‘tishi bilan o‘quvchining texnik imkoniyatlarini cheklab, murakkab asarlarni o‘zlashtirish jarayonida qo‘shimcha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu bois dastlabki mashg‘ulotlardanoq pedagog o‘quvchining gavda holati, cholg‘uning joylashuvi, qo‘l va barmoqlarning erkinligi hamda harakatlarning tabiiyligini muntazam nazorat qilishi lozim. Mazkur nazorat faqat xatoni ko‘rsatish bilan cheklanmasdan, uning sababini tushuntirish va to‘g‘ri ijro holatini amaliy namoyish etish bilan birgalikda olib borilganda samaraliroq natija beradi.

Dutor ijrosida o‘ng va chap qo‘l harakatlarining o‘zaro muvofiqligi ham alohida metodik e’tiborni talab qiladi. Tovush hosil qilish jarayonida o‘ng qo‘l harakati bilan chap qo‘lning pardalarni aniq bosishi bir vaqtning o‘zida va muvofiqlashgan holda amalga oshirilishi kerak. Ijro jarayonida o‘ng qo‘l mushaklari bo‘sh bo‘lishi va musiqiy dinamikalar o‘zgarishi, tovush maqsadli ko‘tarilishi vaqtida ular kuch berish malakasini to‘g‘ri amalga oshirishi zarurdir. Bu borada qisqa tremolo qilish va tremolo nisbatini uzaytirib borish mashqini bajarish o‘z samarasini beradi.[2] Boshlang‘ich o‘quvchilarda esa ushbu harakatlarni birlashtirish jarayonida ritmik uzilishlar, tovushning noaniq chiqishi yoki tempning beqarorligi kuzatilishi mumkin. Bunday vaziyatda murakkab repertuarga shoshilinch o‘tish o‘rniga har bir texnik elementni alohida shakllantirib, keyinchalik ularni birlashtirish metodik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Qisqa texnik mashqlarni sekin tempda bajarish, harakat aniqligiga erishilgandan keyingina ijro tezligini oshirish o‘quvchining motorik ko‘nikmalarini barqarorlashtiradi.

[2] Yunusov U. Xalq cholg‘ularida ijrochilik. Dutor. – Toshkent, 2023. 23-b

Ritmik aniqlikning yetarli darajada shakllanmasligi ham o‘quvchilarning ijrochilik faoliyatida tez-tez uchraydigan muammolardan biridir. Dutor ijrosida ritm musiqiy asarning strukturaviy yaxlitligini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri bo‘lib, nota balandliklarining to‘g‘ri ijro etilishi o‘z-o‘zidan yetarli natijani ta’minlamaydi. Ijro sur’atining o‘zgarib ketishi, pauzalarning aniq bajarilmasligi yoki ritmik formulalarning buzilishi asarning musiqiy mazmuniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ilk bosqichidanoq ritmik tarbiyani muntazam olib borish, metronomdan foydalanish, murakkab ritmik shakllarni alohida mashq qilish, sanash orqali ichki pulsni rivojlantirish va asarni dastlab sekin tempda o‘zlashtirib, keyinchalik ijro tezligini bosqichma-bosqich oshirish samarali metodik yechimlardan hisoblanadi.

Dutor ijrosida tovush sifatini shakllantirish masalasi ham boshlang‘ich ta’limning muhim tarkibiy qismidir. Yosh ijrochilar ko‘pincha tovush chiqarishda ortiqcha kuch ishlatishi yoki zarb harakatini yetarlicha nazorat qilmasligi natijasida cholg‘uning tabiiy tembr imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmaydi. Natijada tovushning keskinligi, notekisligi yoki dinamik jihatdan bir xilligi kuzatiladi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun tovush hosil qilish mexanizmini pedagog tomonidan amaliy namoyish qilish, o‘quvchining ijrosini tinglash orqali tovush sifatini muntazam baholash va turli dinamik darajalarda tovush chiqarishga qaratilgan mashqlarni qo‘llash zarur. Bunda texnik harakatning o‘zi emas, balki uning natijasida hosil bo‘layotgan tovushga eshitish orqali baho berish ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dutor ijrochilik ta’limida repertuar tanlash ham o‘quvchining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biridir. O‘quvchining texnik va psixologik imkoniyatidan yuqori bo‘lgan asarlarni erta bosqichda berish ijroning mexanik tus olishiga, ortiqcha zo‘riqishga va cholg‘uga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, haddan tashqari sodda repertuar o‘quvchining texnik va badiiy rivojlanishini sekinlashtiradi. Shuning uchun repertuar tanlashda “osondan murakkabga” tamoyiliga amal qilish, har bir asar orqali muayyan texnik yoki badiiy vazifani hal qilish va o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish lozim. Repertuar tarkibida xalq kuylarining an’anaviy namunalarini zamonaviy o‘zbek kompozitorlari asarlari hamda o‘quvchining yoshiga mos qayta ishlangan musiqiy namunalar bilan uyg‘unlashtirish uning milliy musiqiy tafakkuri va umumiy musiqiy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulot olib borish ko‘nikmasining yetarli darajada shakllanmaganligi ham dutor ijrochiligini rivojlantirish jarayonida alohida e’tibor talab etadi. Dars davomida o‘qituvchi ko‘rsatmasi asosida to‘g‘ri bajarilgan mashq uy sharoitida mustaqil takrorlanganda xatolar bilan ijro etilishi mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri o‘quvchining mashq qilish maqsadi va ketma-ketligini yetarli darajada anglamaganligidir. Shu sababli dars yakunida o‘quvchiga umumiy topshiriq berish o‘rniga aniq metodik vazifalarni belgilash maqsadga muvofiq. Masalan, muayyan mashqni sekin tempda bir necha marotaba xatosiz bajarish, murakkab taktlarni alohida ishlash, metronom yordamida tempni nazorat qilish yoki o‘z ijrosini audio yozuv orqali qayta tinglash kabi topshiriqlar o‘quvchining mustaqil mashg‘ulotini aniq yo‘nalishga solidi

Dutor ta’limining samaradorligini oshirishda “ustoz-shogird” an’anasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyatga ega. Ustozning ijroni bevosita namoyish etishi, shogirdning kuzatishi, takrorlashi va keyinchalik mustaqil ijroga

o‘tishi dutor o‘qitish metodikasining an’anaviy va samarali shakllaridan biridir. Biroq zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchi faqat taqlid qiluvchi ijrochi bo‘lib qolmasligi, balki bajarilayotgan harakatning musiqiy va texnik sabablarini tushunishi kerak. Shu sababli namoyish, tushuntirish, amaliy mashq, mustaqil tahlil va refleksiya yagona pedagogik tizim sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, dutor ijrochiligini rivojlantirish masalasida ilk bosqichlarda alohida ahamiyat berish zarur. Chunki aynan ushbu bosqichda shakllangan ijrochilik stereotiplari keyingi ta’lim bosqichlarida davom etadi. Agar cholg‘uni ushlash, qo‘l holati, barmoq qo‘yilishi, tovush hosil qilish yoki ritm bilan bog‘liq xatolar dastlabki davrda nazorat qilinmasa, keyinchalik ularni tuzatish ancha murakkablashadi.

Shu bilan birga, maktablardagi dutor ta’limining samaradorligi faqat texnik natijalar bilan baholanmasligi kerak. O‘quvchining musiqiy eshitishi, badiiy obrazni his qilishi, asar mazmunini tushunishi, mustaqil fikrlashi va musiqaga estetik munosabati ham ta’lim natijasining muhim komponentlari hisoblanadi. Shu ma’noda texnika va badiiylikni qarama-qarshi qo‘yish noto‘g‘ri. Texnik mashqlar badiiy ijroga xizmat qilishi, badiiy ijro esa texnik ko‘nikmalarning mazmunini ochib berishi kerak.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dutor ijrochiligini rivojlantirishning istiqbolli modeli uch asosiy yo‘nalishning o‘zaro uyg‘unligiga asoslanadi: milliy ijrochilik an’analarini saqlash, professional ijrochilik texnikasini izchil rivojlantirish va zamonaviy pedagogik hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Ushbu uch komponentdan birining e’tibordan chetda qolishi ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy musiqa ta’limida dutor ijrochiligini rivojlantirish uzluksiz, bosqichma-bosqich va ko‘p komponentli pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Mazkur jarayonning eng muhim boshlang‘ich bo‘g‘ini bolalar musiqa va san’at maktabi hisoblanadi. Chunki aynan shu bosqichda o‘quvchining cholg‘u bilan munosabati, asosiy ijrochilik harakatlari, musiqiy eshitishi, ritmik sezgisi, nota savodi, mashq qilish madaniyati va sahna faoliyatiga munosabati shakllanadi.

Maktablarda dutor ta’limining asosiy muammolari sifatida o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasidagi farqlar, cholg‘uni to‘g‘ri ushlash va ijro holatini shakllantirishdagi kamchiliklar, o‘ng va chap qo‘l harakatlarining muvofiqlashmaganligi, ritmik aniqlikning yetarli emasligi, tovush sifatini nazorat qilishdagi qiyinchiliklar, repertuarning individual imkoniyatlarga mos kelmasligi, mustaqil mashg‘ulot ko‘nikmalarining sustligi va sahna tajribasining yetishmasligini qayd etish mumkin.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun dutor ta’limida individual-diagnostik yondashuvni joriy etish, texnik mashqlarni bosqichma-bosqich tashkil qilish, ritmik tayyorgarlikni kuchaytirish, repertuarni o‘quvchining yoshi va imkoniyatlariga moslashtirish, audio-video vositalaridan foydalanish, mustaqil mashg‘ulot metodikasini shakllantirish va muntazam sahna amaliyotini yo‘lga qo‘yish zarur. Bunda har bir o‘quvchi uchun individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish muhim metodik shartlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

“Ustoz-shogird” an’anasi dutor ijrochiligi ta’limining muhim pedagogik asosi sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolishi kerak. Biroq uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim resurslari, audio-video tahlil, individual mashg‘ulot dasturlari va refleksiv metodlar bilan boyitish zamonaviy ta’lim talablariga mos keladi. Bunday integratsiya an’anaviy ijrochilik maktabining ijobiy jihatlarini saqlagan holda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi.
Dutor repertuarini takomillashtirish ham istiqboldagi muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rasultoyev J. O‘zbek dutor ijrochiligi. – Toshkent, 1997.
2. To‘ranazarov N. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari. Toshkent, 2006.
3. Isayeva N. Cholg‘uijrocholigi Dutor T.2024
4. Xodjayeva R. Xalq cholg‘ularida ijrochilik. Dutor. – Toshkent, 2022.
5. Yunusov U. Xalq cholg‘ularida ijrochilik. Dutor. – Toshkent, 2023.